

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

”Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
5141700- maktabgacha ta’lim yo’nalishi 402- guruh talabasi

Urunova Niginaning

“Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi, xalq og’zaki ijodidagi kichik
janrdagi asarlar” mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: O’qituvchi. S. Nasimov

Samarqand- 2013 yil

Reja

Kirish

I. Bob. Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligining nazariy asoslari.

1.1. Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlari

1.2. Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarining ahamiyati.

II. Bob. Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi, xalq og'zaki ijodidagi kichik janrdagi asarlarning amaliy jihatlari.

2.1. Bolalar kitobxonligi va xalq og'zaki poetik ijodiga xos xususiyatlari

2.2. Dostonlar va ularning iga xos xususiyatlari va bolalar folklorining pedagogik ahamiyati

Xulosa

Adabiyotlar ro'yhati

KIRISH

Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda sport – sog'lomlashtirish inshootlari, tennis maydonchalari barpo etilmoqda. Biroq sog'lom avlod deganda faqatgina jismonan baquvvat insonnigina tushunish masalaga bir yoqlama yondashish bo'lur edi. Avlod barkamolligi uningsh ma'naviy kamolotiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan bola tarbiyasi milliy, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan yondashishni talab etadi.

Bizga ma'lumki, og'zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo'lmasdan ilgari, uzoq o'tmishdayoq mavjud bo'lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma'naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir. Xalq og'zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog'langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o'ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o'qiydilar

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib tadqiqotning nazariy asoslari:

Ma'lumki har bir tadqiqot uchun tanlangan mavzu bo'yicha olib boriladigan ishlarda uning maqsadi, vazifasi, dolzarbligini nazariy jihatdan asoslab o'tishni taqazo qiladi. Shu talabni hisobga olib, bizning izlanishimiz ham ilmiy nazariy jihatdan o'zining tayanch manbalariga ega bo'lgan holda yuritiladi.

I.A.Karimovning maktabgacha ta'lim muassasalari, ularga qo'yilayotgan pedagogik – psixologik talablar yuzasidan so'zlagan nutqlari, fikrlari va Respublikamizda bu soha bo'yicha qabul qilingan qarorlar, shuningdek shu sohaga oid olib borilgan izlanishlar, O'zbekistonda bu sohaga qo'l urgan olimlardan Razzoqov. H Jumaboyev. M va boshqalar yaratgan darslik va boshqalar yaratgan darslik va qo'llanmalarni o'qib o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib belgiladik. Ulardan tegishli xulosalar chiqarib ishlarimizning nazariy ettirib berdik. Sharhlar, bobida ularni aks ettirib berdik.

Tadqiqotning asosiy maqsadi: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularga xalq og'zaki ijodi

haqidatushuncha berishning shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishni ilmiy jihatdan asoslashdir.

Tadqiqotning obyekti:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim – tarbiya jarayoni.

Tadqiqotning predmeti:

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish tarbiyachilarning o'rni.

Kurs ishining vazifalari:

Yuqorida qayd etilgan maqsadimizdan kelib chiqib:

Kurs ishi uchun tanlangan mavzu bo'yicha pedagogik – psixologik, ilmiy va o'quv adabiyot materiallarni o'rganib umumlashtirish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirishning hozirgi zamon pedagogika va yosh psixologiyasiga oid adabiyotlardagi materiallarni o'rganish, ilmiy amaliy jihatdan tahlil qilish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tarbiyalashning amaliy ahamiyatini o'rganish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ruhiy taraqqiyoti va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy ravishda olib borish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ongi va xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlarni pedagogik – psixologik nuqtai nazardan ilmiy asosda tushuntirib berish.

Sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun pedagogika va yosh psixologiyasi fani sohasida qo'llanib kelinayotgan biz quyidagi metodlardan foydalandik:

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish

Bolalarni turli faoliyatlari jarayonida kuzatish

Suhbat metodi

Ko'rsatmali metodlar

Kurs ishimizning ilmiy farazi (gipotezasi) agar biz tanlangan mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy apparat tarkibidagi tadqiqot tadbirlarini maqsadga

muvofiq qo'llab borilsa, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanishdir.

Kurs ishimizning mazmuni uning rejasida ko'rsatilgan tuzilishga ega. U to'liq ikki bob, to'rt bo'limdan iborat bo'lib, unda kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur kurs ishidagi o'tkazilgan amaliy tadbirlar Samarqand shahridagi 80-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirildi.

I. Bob. Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligining nazariy asoslari.

1.1. Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, og'zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo'lmasdan ilgari, uzoq o'tmishdayoq mavjud bo'lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma'naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir. Xalq og'zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog'langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o'ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o'qiydilar. Xalq og'zaki ijodi bilan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og'zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so'z ma'nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyliigi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag'ishlaydi, uni o'ziga mahliyo etadi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, kichik va o'rta yoshdagi bolalar qahramonlik dostonlarini zavq-shavq bilan o'qishadi, ertak, qo'shiq va topishmoqlarga g'oyat qiziqishadi. Xalq og'zaki poetik ijodida yaxshilik yomonlik ustidan, to'g'rilik egrilik ustidan g'alaba qiladi, mehnatkash xalqning intilishlari, turli orzu, istaklari haqqoniy va favqulotda qiziqarli ravishda hikoya qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodida mehnat ahlining urf- odati, tabiat va jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, baxtli hayot haqidagi ezgu tilak va orzulari, qayg'u va shodlik xislari, ularning qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari, dushmanga nisbatan g'azab va nafratlari, yengilmas iroda-yu haqiqat, adolat, baxt haqidagi o'y va tushunchalari aks ettiriladi.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos qonuniyatlari bor, agar bu fan bolimlarga ajratib o'rganilmas ekan, pala-partishlik, turli tushunmovchilik kelib chiqishi tabiiy. Eng avvalo kitobxonlik — kitob o'qish, tinglash, hikoya qilishdek e'tibor berilishi zarur bo'lgan amallar bor. Shunga ko'ra bolalar kitobxonligini

o'quvchilarning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yosh-dan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11—12 yoshgacha).
3. O'rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (13 — 14yoshdan 15—17yoshgacha).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi

Bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla yetakchilari-yu tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Kattalar o'qib, aytib, hikoya qilib beradigan asarlar bu davr bolalari uchun muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu davr bolalariga o'qib beradigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi zarur. Shuningdek, bunday kiloblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bog'cha yoshidagi bolalarga ham, avvalo, maqol va topishmoqlarni, so'ng hayvonlar haqida, umuman, tabiatni sevishga o'rgatuvchi ertaklarni aytib berish yoki o'qib berish juda foydalidir. Ularga mehnatsevarlikni o'yinlar orqali o'rgatilsa, yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Sholg'om", "Bo'ri bilan Qo'zichoq", "Tulki bilan Turna", "Tulki bilan uzum", "Ur, to'qmoq!" kabi masal va ertaklar bolalarni mehnatsevarlikka, tabiatni sevishga, rostgo'ylikka o'rgatadi, aldamchilik va xudbinlik, baxillik va ochko'zlik yomon illat ekanligini tushuntiradi.

"Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bori yer", "Hunar hunardan unar", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Mehnatning tagi rohat" kabi xalq maqollarini yodlatish va ularning mazmunini yaxshilab tushuntirish bolalar tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini ertak, qo'shiq, topishmoq maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Ammo shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Tolib Yo'ldoshning "O'yin bo'lsa" she'ri juda oddiy, sodda, u bor-yo'g'i sakkiz misra. Bu she'rni har qanday kichiktoy bir zumda yodlab oladi. Bu asarda "Bola yettiga kirguncha yerdan kaltak yeb o'sadi" maqoli jamlangandek:

O'yin bo'lsa o'ynaymiz.

Bo'lmasa-chi, topamiz-

Topolmasak zir yelib,

To'rtomonga chopamiz. ~

Yiqilamiz, turamiz

Shu ham o'yin atalur.

Bizday necha yiqilib

Katta bo'lgan otalar.

Asar bolalarni do'st, topag'on, ahil bolib o'ynab-kulib o'sishga, bobolarning udumlariga sadoqatli bo'lib kamol topishga da'vat etadi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o'zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni mehnatni sevishni o'rganadilar.

Maktab yoshdagi kichik bolalar kitobxonligi

Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgisidan biroz farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag'ishlaydi. Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli

voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan.

Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning hajmi avalgisiga nisbatan kattaroq, ma'no va mazmuni murakkabroq bo'lishidan tashqari, harflari ham yirik-yirik bolib, rasm va bo'yoqlarga boy bo'lishi talab etiladi. Bu davr bolalar kitobxonligida kichkintoy, albatta, bajarishi zarur bo'lgan ma'suliyat bor. Masalan, ota-ona, tarbiyachi, muallim topshirig'ini so'zsiz ado etish, namunali o'qish, yurish-turishda o'zgalarga ibrat bo'lish, ona-Vatanni sevish va boshqalar. Shu o'rinda Quddus Muhammadiyning "Avval o'yla. so'ngra so'zla" she'ri yuksak darajada turadi. Chunki bola maktabga qadam qo'yishi bilan uning bolaligi. hayotga masuliyatsizligi tugaydi. Har bir bosgan qadamiga, gapiradigan gapiga e'tibor berishi talab etiladi:

O 'ylamasdan so 'zlash qanday?

Menimcha, bu mumkin emas.

Odam o 'ylab so 'zlaydi,

O'ylamasang so 'z unmas.

O 'ylamasdan so 'zlagan so 'z

Odamni xafa qilar.

So'z qovushmay, u tig' -u ters,

mavzudagi eng yaxshi asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi

Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ravishda kitob o'qib qolmay, balki kitob qahramonlarining xatti harakatlarini baholashga o'rganadilar, zarurat bo'lsa, ular ko'rsatgan mardlik va jasoratlarni takrorlashga hozirlanadilar.

Ularga xalqimizning shonli tarixi, bugungi hayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin. "Shiroq", "to'maris" kabi afsonalar bilan

birga, Elbek, Oybek, G'afur G'ulom, Zafardiyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Qambar Ota, Safar Barnoyev va boshqalarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxotiy, Farobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Novoiy va boshqalarning asarlari bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rib o'tganimizdek bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari bilan katlar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevisga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun turadi.

Xalq og'zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi - insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» atamaları bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846- yilda qo'llangan bo'lib, «folk» - xalq va «lor» - bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilirni», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og'zaki usulda amalga oshadi. Ya'ni bunday asarlar og'zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o'zgarishi, unga yangi qismlar qo'shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi eng qadimiy san'atlardan biri bo'lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan:

Epik tur - mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, dos-ton va boshqalar.

Lirik tur - marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

Dramatik tur - og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.

Maxsus tur - maqol, matal, topishmoq kabilar.

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida misqollab to'plangan, ne-ne sinovlardan o'tgan, insonlarga hamisha madad bo'lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifamiz ana shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi.

Qo'shiqlar.

Bola tarbiyasida qo'shiqning roli juda katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha bandli she'rdan iboratdir. Qo'shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alla qo'shig'i yetakchi o'rinda turadi. Beshik qo'shig'i — allada kichkintoyning dastlabki tabassumi, ilk bor qo'l-oyoqlarini qimirlatishi, imo-ishorani tushunishi kuylanadi. Ona endigina olamga kelgan do'mbog'idan shod, xursand holda berilib alla aytadi. Garchand norasida allaning mohiyati nimadan iborat ekanligini hali uncha his etmasa-da, baribir ona alla aytaveradi. Ona o'z allasida atrofni qurshab turgan olamni qo'shib aytadi. Butun borliq kechasi uxlashi — dam olishi va shu jumladan, kichkintoyi ham uxlashi zarurligini berilib aytadi:

Yot, bolam, uxla, qo'zim,

Uylarda o'chdi chiroq.

Uxlar asalarilar,

Uxlar baliqlar tinchroq.
Ko'kda oy yarqiraydi,
Derazadan qaraydi.
Ko'zlaring yumgin, qo'zim,
Yot, quvonchim, qunduzim! Alla, alia.

Ovuntirish — allani hamma — onalar, buvilar, bobolar aytishadi. Alla asta-sekin ommaviy qo'shiqqa aylanadi. Qo'shiqlar uzoq yillar mobaynida davom etadi. Aytaylik, chaqaloqni birinchi bor beshikka solayotganda aytiladigan qo'shiqlarda, avvalo, beshikka ta'rif-tavsif beriladi. Aslida beshik yog'och-taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg'akka huzurbaxsh joy bo'lishi har bir beshik qo'shig'ida chiroyli ifodaga ega:

Beshigi taxta,
Orqasi paxta
. Egasi keldi,
Kuchugi qoch.
Ichida yotganning
Bahrini och.

Chaqaloq beshikda maza qilib uxlab, orom olib bo'lgach, norasidani beshikdan olayotganda aytiladigan qo'shiq ham nihoyatda muxtasar aytiladi. Alloh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hech qanday sharpa-dushman uning uyqusini buza olmaganligini quyidagi to'rtlikdan bilib olish qiyin emas:

Taqa-tuqi gavora bo'lsin,
Dushmani ovora bo'lsin.
Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmani eshikda qolsin!

Xalq qo'shiqlarida rasm-rusumlar rang-barang. Hammasi o'rinli. Hammasi zarur. Masalan, qizaloqning sochini ilk bor yuvib- taraganda aytiladigan qo'shiqlarda sochning uzunligi, qalinligi, ko'rsa-ko'rgudekligi, katta-kichikning havasini

keltiradigan darajada ko'rkamligi obdan maqtaladi. Ayrim qo'shiqlarda sochning ta'fifi oy u quyosh bilan bog'lab

uzunligi cho'zsa oy va quyoshga ham yetib borishi quvnoq misralarda ifodalanadi:

Oyda — quloch

Kunda — tut am.

Senga — kuyov,

Menga — palov.

Shu zaylda beshik qo'shiqlari kenja avlod kamolotida o'ziga xos tarbiya rolini o'taydi. Kichkintoylar ota-onalaridan, bobo- momolaridan chiroyli, ta'sirli alla, qo'shiqlar tinglab, tillari biyron, o'ktam, ziyrak bo'lib ulg'ayar ekanlar endilikda o'zlari ham hayot yo'llarida qo'shiq to'qib, qo'shiqlar qanotida o'sib-ulg'ayishga harakat qiladilar. Bunday qo'shiqlarning oliy namunasi „Chittigul“ turkumiga kiradigan qo'shiqlar bo'lishi mumkin. „Chittigul“da mavzu nihoyatda rang-barang va juda jozibali. Chunonchi:

Oq sholiga ko'k sholi,

Oq sholini oqlaylik,

Ko'k sholini ko'klaylik,

Yaxshi kunga saqlaylik,

Ha-yu, chittigul, Ha-yu, chittigul

singari misralarga nazar soladigan bo'lsak, turi, rangini eslatish orqali sholi hosili juda mo'l bo'lganligini; bu mo'l-ko'l sholini pala-partish qilib yeb-tamomlamasdan, balki uni ehtiyotlab, tejamkorlik bilan ishlatish darkorligi bolalar tilidan chiroyli tasvirlangan. Bugungi kunda tejamkorlik, iqtisod haqida bolalarga ko'p gapiramiz. Yuqoridagi qo'shiqdan ayon bo'lishicha, ota- bobolarimiz azaldan har bir narsani tejab-tergab ishlatishni o'z farzandlariga qattiq o'rgatib kelishgan.

Endi mana bu misralarga razm soling:

Jo'xorilar bo'ldi oq,

Qo'nma, shum qorayaloq!

Agar qo'nsang, urayin,

Bo'lar oyog'ing cho'loq. Ha-yu, huvv!

Ko'rinib turibdiki, kattalarning mehnati bilan jo'xori ekilgan. Bugungi kunda u hosilga kirgan. Agar jo'xori qo'riqlanmaydigan bolsa, qarg'a, quzg'unlar yeb, ekinni barbod qiladi. Bu ish kenja avlod — bolaga topshirilgan. Bolaning g'ayrat-shijoati, ekinni saqlab qolish uchun urinishi, o'ylaymizki, bugungi bolalarga ham namuna boladi. „Agar qo'nsang, urayin, bo'lar oyog'ing cho'loq" deyishi qaysi bolani kattalarning mehnatiga ko'maklashishga da'vat etmaydi deysiz! Lekin bolalarni qushlarga don berishga, in qurishga ham o'rgatish kerak.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qo'shiqlar bolalarning nafosatini o'stirishga, ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatan- parvarlik, do'stlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Maqol va topishmoqlar

Qadrli bolalar, siz avvalgi darslardan maqol va topishmoq nimaligi haqida muayyan tasavvur olgansiz. Bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizda «So'z ko'rki maqol», deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi. Biror-bir fikrni uqtirishda ishlatilgan maqol uni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Maqollar pand-nasihatlar, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Uni, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, «Otalar so'zi» ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingyilliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebaho ma'naviy boyligimiz ekanidir.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Masalan, «Ona yurti - oltin beshiging», «Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l» kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz.

Avval ta'kidlaganimizdek, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, «Yuz ko'rki soqol, so'z ko'rki maqol», «Aql - yoshdan, odob - boshdan». Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o'xshab ketadi. «Bir parcha patir, olam-ga tatir» (oy)

topishmog'idagi «patir» va «tatir» so'zlaridek, maqoldagi «yoshdan» va «boshdan» so'zlari bir-biriga qofiyadoshdir. Biroq bu o'xshashlik tashqi shaklda ko'rinadi. Mazmunan ular o'zida boshqa-boshqa ma'nolarni tashaydi. Biri ibratli fikrni anglatga, ikkinchisi, kishini jumboqda yashiringan ma'noni topishga undaydi, idrokini sinaydi.

Maqol va topishmoqlar, o'zlarining o'xshash va farqli jihatlaridan qat'i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi.

TEZ AYTISH

Tez aytish xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri hisoblanadi. Tez aytish bolalarda aqliy o'tkirlik va zukkolikni tarbiyalaydi. Masalan, „O'ktam ko'm-ko'k ko'rkam ko'klam rasmini ko'm- ko'k qalamda chizmoqchi“, „Zanjir, sarjin, anjir“, „Oq o'tloq — oppoq o'tloq“, Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir“.

Xalq og'zaki ijodida alliteratsiya hamda muayyan tovushlar takrori asosiga qurilgan tez aytish namunalari she'riy shaklda ham yaratiladi:

Sora allalaydi, Lola allalaydk Non yasashasanmi, Sholi sanashasanmi?

Bolalarni biyron so'zlashga o'rgatib, ularga estetik zavq beradigan, fikr va qobiliyatlarini o'stiradigan, xotiralarini mustahkamlaydigan bunday tez aytishlarning kichkintoylar adabiyotidagi roli va o'rni katta.

Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek bolalar adabiyotida ham uning ilk namunalari folklor asarlari tarzida yuzaga kelgan. Allalar, qo'shiqlar, ovutmachoqlar, erkalatmalar, sanamalar hali go'dakligidanoq bolalar qulog'iga quyib boriladi. Keyinchalik ular ertaklar, topishmoqlar, maqol va masallar, dostonlar tarzida bevosita bolalarning o'zlari tomonidan mutolaa qilinadi.

Dostonlar xalq og'zaki badiiy ijodining eng yirik janrlaridan biridir. Doston qahramonlarning o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi, ishqiy yoki fantastik mazmunga ega bo'lgan yirik hajmdagi she'riy

asardir. Unda o`mi-o`rnida (asar ichida) nasriy parchalar ham berilgan. Dostonlar halqning o`zi tomonidan aytilgan xalq tarixidir. Dostonlar har bir tarixiy davrning, sotsial tUzumning, xalq psixologiyasining xususiyatlarini badiiy formada aks ettiradi. Dostonlar xalq orasida yaratilgani uchun ijodqor xalq dostonlar orqali o`z orzu intilishlarini, his-tuyg`ularini ifodalaydi. Dostonlar hajm jihatdan ham voqelikni aks ettirish obrazlar sistemasining keng va atroflicha talqin etilishi jihatidan ham fol`klorning boshqa janrlariga nisbatan salmoqli. Shuning uchun ham dostonlarni ba`zan xalq romanlari deb yuritadilar. Dostonlarni odatida alohida avtorlar yaratadilar. Biroq asrlar davomida og`izdan og`izga o`tishi natijasida ularning birinchi ijrochisi unutilib, umumxalq ijodiga aylanib qoladi. Xalq dostonlarining turli tsikllari, varinat va versiyalari paydo bo`ladi. Ma`lumki fol`klordagi dostonchilikning asosiy xususiyati ijodiy protsessning qollektiv xrakteriga ega bo`lishidir.

Masalan, hikoya qilishlaricha Ernazar Baxshi Buxoro Amiri Nasrullo hO`zurida «Alpomish» dostonidan olti qo`y qo`ylagan emish. Bunda u qalmoqlar qo`lida tutqunda yotgan qahramonning Boychibor to`lpori yordamida qutqarilishini yangidan-yangi to`squinliklar qo`shib, cho`za bergan emish. Oxiri sabr-toqati qolmagan Nasrullo o`zining janga minadigan otini egaratib, shoir ro`parasiga bog`lagan emish. Buni faxmlagan xushyor shoir shu epizodni dostonga kiritib, go`yo amirning oti Alpomishni qutqarishga jo`nagan va uni shu ot qutqargan qilib ko`rsatgan, shu bilan birga dostonning keyingi epizodlarini siqib, asarni tez tugatgan emish.

Ma`lumki, xalq dostonlari qabilachilik tUzumining emirilishi bilan yakka shaxs o`zining urug` va qabilalariga, jamoalariga qarshi kuch boshlagan davrlarda paydo bo`la boshladi. Ijtimoiy taraqqiyot davri, voqea-hodisalarning mavjud ertak, hikoyat, lirik she`r kabi janrlarga sig`may qolishi va voqealikni murakkab epik planda tasvirlashga bo`lgan talabning kuchayishi natijasida doston janri paydo bo`la boshladi.

Shuningdek, o'tmishda tarixiy shaxslar faoliyati, xalq marosim qo'shiqlari, xalq ertaklari, xalqning hayot usuli va urf-odatlar, turli harakterdagi manbalar doston janrining shakllanishiga turtki bo'lgan deyish mumkin. Xalq og'zaki ijodidagi doston janri o'zining spetsifik xususiyatlari bilan yozma adabiyotdagi dostonlardan farq qiladi. Bu farq doston tematikasiga ham g'oyaviy, mazmunga ham, syujeti va kompozitsion qurilishda ham, obrazlar sistemasi va uslubida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu farqlar asosan quyidagilar. Dostonlar qahramonlari dahshatli dushmanlari-devlar, yalmog'izlar, ajdaholar ustidan yakka ko'rashda g'olib chiqadi. Ana shu xususiyat xalq dostonlarining asosiy mazmunini tashqil etadi. Doston qahramonlari alp (solishtiring Alp Tegin, Alp Arslon, Alp Basmi, Alpomish) pahlavon, polvon qiyofasida tasvirlanadi. Dostonlarda qahramonlar arslon, sher, yo'lbars, qoplonga o'xshatiladi. Dostonlarda qahramonlarning tashqi qiyofasi jismoniy jihatdan ham, ideallashtiriladi. Bu narsa doston qahramonlarining dushmanlar bilan ko'rashida yaqqol seziladi. Jumladan, «Malika ayyor» dostonida Avaz bahaybat kelbatli, har panjasi 3,6,9, botmon keladigan Makotilni qumursqaga qiyos qiladi va engadi.

Ko'pchilik dostonlarda qahramonlarning jasorati yoshlik paytlarida namoyon bo'ladi. Alpomish 14 yoshida qalmoqlar yurtiga Barchin uchun boradi. Go'ro'g'li 6 yoshida Badgirni o'ldiradi, 9 yoshli Nurali bilan otasi Avazni qutqarishga yo'lga chiqadi. Xalq dostonlarig xos bo'lgan yana bir xususiyat ota-onaning O'zoq safar oldidan o'z farzandiga nasihatidir. Chunonchi, «Ravshan» dostonida Hasan Ravshanni qahramonlikka, jasoratga, adolatli va insonparvar bo'lishga undaydi. Dostonlarda sevgi va muhabbat, ma'shuqalarining qahramonligi, kanizaklar ham alohida romantik ruh bilan tasvirlangan. Doston syujetida qahramonlar minadigan ot asosiy o'rinni tutadi. Bedov, To'lpor, G'irot, G'irko'k nomlari bilan beriladigan otlar doston bosh qahramonlarining sargO'zashtlarida yaqin yordamchi sifatida ifodalanadi. Ot yordamida O'zoq masofalarni qisqa muddatda bosib o'tadi, katta-katta ishlarni bajaradi. Dostonlarda qahramonlarning devlarga qarshi ko'rashi va ularni o'z izmiga solib

olishlari ham tasvirlangan. Bunday obrazlar «Malikayi ayyor», «Yunus pari», «Balogardon» kabi dostonlarda uchraydi. Umuman fol'klordagi doston janrining yozma adabiyotdagi dostonlardan farqlovchi shunga o'xshash juda ko'p xususiyatlari mavjudki, ular tematik jihatdan ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham bir-birini takrorlamaydi. Doston janrini tematik va g'oyaviy mazmunga qarab quyidagi xillarga ajratish mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Alpomish»)
2. Ishqiy romantik dostonlar («Ravshan» va Go'ro'g'li tsiklidagi dostonlar).
3. Tarixiy dostonlar. («Shayboniyxon», «To'lg'onoy» kabi)
4. Kitobiy dostonlar, «Bahrom va Gulandom», «Oshiq G'arib va Shoxsanam» va boshqalar

«Alpomish» dostoni.

«Alpomish» dostoni mashhur xalq qahramonlik eposidir. «Alpomish» qahramonlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, birodarlik, chin sevgi va sadoqatni qo'ylovchi dostondir. Bu doston qadim zamonlarda vujudga kelib, asrlar davomida xalq baxshilari, shoirlar tomonidan qo'ylanib, takomillashib bordi. Bu doston xalq baxshilarining sevib qo'ylaydigan asardir. Birorta o'zbek baxshisi yo'qki, «Alpomish» dostonini zavq-shavq bilan qo'ylamagan bo'lsin. Shuning uchun «Alpomish» dostoning o'zbek shoir va baxshilari tomonidan qo'ylanib kelgan va fol'klorshunoslikka yozib olingan 30 dan ortiq varinatlari bor.

Ana shu varintlari orasida eng mukammali va badiiy jihatdan pishiq ishlangani Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantdir. Bu variant 1939 yilda Hamid Olimjon so'zboshisi bilan chiqdi. «Alpomish» dostoni turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda ham «Alpomish» dostoning turli variantlari bordir. «Alpomish» dostonining ko'rtaklari, patriarxal qabilalar hayotiga borib taqaladi. Dostonda ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi, sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, qabila kambag'allarining qul qilinishi hamda feodal

munosabatlarining shakllanishi tasvirlangan. Ilmiy adabiyotlarda «Alpomish» dostoni XVI asrda to'la shakllangan deb ko'rsatiladi.

Ammo, Alpomish qaysi davrda yaratilgan bo'lmasin, unda xalq tarixi va ko'rashi, ozodlik uchun intilishi, xalq urf-odatlarini o'zining yorqin badiiy ifodasini topgan.

«Alpomish» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan varianti eng mukammali, o'zbek va boshqa xalqlari kitoblari orasida mashhuri hisoblanadi. Shuning uchun biz quyida ana shu Fozil shoir variantining qisqacha syujetini keltirish va shu xaqda fikr yuritishni lozim ko'rdik.

Qadim zamonlarda o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tgan ekan. Dobonbiydan Olpinbiy ismli farzand tug'ilibdi. Olpinbiydan esa ikki o'g'il paydo bo'libdi. U kattasiga Boybo'ri, kichigiga Boysari deb ism qo'yibdi. Dobonbiy o'z mamlakatining boyligini ikkiga bo'lib, uni Qo'ng'iro't va Boysun deb ataydi. Biriga katta o'g'li Boybo'rini, ikkinchisiga kichik o'g'li Boysarini xukmdor etib tayinlabdi. Boybo'ri bilan Boysari farzand ko'rmaydi. Hatto to'yda odamlarning gapini eshitadilar. Ular farzandsizlikdan eziladilar. Nihoyat Boybo'ri bilan Boysarining xotinlari xomilador bo'ladilar. Boybo'ri o'g'il ko'radi ismini Xaqimbek qo'yadi. Boysari esa qizlik bo'ladi, ismini Barchin qo'yadi. Aka-ukalar farzandlarimiz voyaga etsa quda bo'lamiz deb ahd qilishadi. Xaqimbek yoshligidanoq pahlavon bo'lib o'sadi, atrofdagilar uni pahlavon ya'ni «alp» deb atay boshlaydilar. Barchin ham go'zallikda, aql-idrokida yagona bo'lib o'sadi.

Kunlarning birida Boybo'ri bilan Boysari o'rtasida nizo kelib chiqadi. Buning sababi Boybo'rinning o'z ukasi Boysaridan zakot talab qilishi edi. Akasiga zakot berishni istamagach Boysari o'z urug'i bilan qalmoq eliga panoh izlab ketadi. Yo'lda Boysari chorvasi qalmoqlarning ekin erlarini payhon qiladi. Bundan qattiq g'azablangan Qalmoqshoh Boysariga dushmanlarcha munosabatda bo'ladi. Qalmoqshohning 90 alp yigiti bo'lib, Barchinga oshiq bo'lib qoladilar. Zo'ravonlarcha sovchi yuboradilar. Mana shunday bir paytda

Barchin qalmoq xukmdorining zo`ravonligiga qarshi o`zini qutqarish uchun harakat qiladi. Otasining mushkul ahvolga tushib qolganligini ko`rib, o`z talantini ishga soladi. Qalmoqlardan qutilish yo`lini izlaydi. Shu maqsadda 4 shart qo`yadi. Shart bajargan qishiga xotin bo`lishga tayyor ekanligini bildiradi. Shartlarning birinchisi ming qadam joydan tangani urish, ikkinchisi 90 alpni ko`rashdan engib chiqish, uchinchi kamon otganda yoyi sinmaslik, to`rtinchisi poygada o`zish edi.

Lekin, Barchin Alpomishni sevardi. Shuning uchun u Alpomishga xabar yuboradi. O`zining ahvoli va shartlarini bildiradi. Alpomish xabarni eshitgach, qator sargO`zashtlardan so`ng qalmoqlar yurtiga etib keladi, Qorajon bilan do`stalashadi. Alpomish bilan Qorajon bir taraf, alplar bir taraf bo`lib ko`rash boshlaydilar. Barchin qo`ygan shartlarni bajargach yana bir qancha sargO`zashtlardan so`ng o`z yurti Qo`ng`irotda Barchinni olib qaytadi. Murod-maqsadiga etadi.

Biroq shuni alohida ta`kidlash kerakki, «Alpomish» dostoni turli baxshilar tomonidan turlicha qo`ylangani sababli, uning syujetida turli harakterdagi o`zgarishlar mavjud. Bir variantga mavjud bo`lgan epizod ikkinchisida tushib qolgan yoki boshqacha planda berilgan. Hatto ma`lum tarixiy sharoitga xos bo`lgan ayrim yangi voqealar kirib qolgan. Ayrim obrazlar bir asarda bir xil talqin qilinsa, ikkinchisida ikkinchi xil beriladi. Jumladan, Barchin shartlari ba`zi varantlariga 2 ta ayrimlarida 3 ta xolos. Dostondagi voqea-hodisalar Boysun va Qo`ng`irotda yuz berganligi aniq aytiladi. Qo`ng`irot qabilasi eng qadimgi qabilalardan bo`lib, u o`zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkmanlarning urug`laridandir. Qo`ng`irot qabilasi asosan chorvachilik bilan shug`ullangan ular Amudaryo yoqasi va Boysun ko`li atrofida ko`chmanchilik bilan hayot kechirishgan. Dostonda tasvirlangan poyga o`tkazilgan joy Boboxon tog`i Termiz yaqinidadir. «Alpomish» dostonning boshqa xalqlarda mavjud bo`lgan variantlarida ham Amudaryo yoqasi, Boysun atrofi qayd etiladi. Bo`larning barchasi «Alpomish» dostoni Surxandaryo territoriyasida yaratilganligi va boshqa joylarga ham tarqalib shuhrat qozonganini ko`rsatadi.

O'zbek folklorida bolalar uchun yaratilgan va bolalar tomonidan ijro etiluvchi folklor namunalari. Bolalar o'yin folklori. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari orqali yetib kelgan, bugungi kunda ham qo'llanadigan bolalar o'yinlari va ularning usullari xususida suhbat. Sanamalar, ularning nutqiy faoliyat rivojidagi roli. Bolalalar folklorlariga xos janr namunalari: "Alla", o'yin ovutmacholqlar, ularning jozibadorligi, poetik xususiyatlari, "Yo ramazon", "Boychechak", "Laylak keldi" qo'shiqlari haqida ma'lumot.

Mustaqil tarakkiy etayotgan mamlakatimizda bunyodqorlik, yaratuvchilik harakatlarining avj olishi yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, Ona Vatanga muhabbat va sadokat xissini tobora kuchaytirmokda, mustaqillik davri shaxsi kamol topmokda. Bu esa xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan mustaqillikni teran anglash, kadimiy tarixiy merosimizni, ma'naviy boyliklarimizni xakkoniy urganishga ahamiyat berishni yanada kuchaytirmokda. Jumladan, Respublikamizda «Alpomish» dostonining 1000 yilligi, mukaddas kitob «Avesto» ning 1700 yilligi tantanalari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xalq og'zaki ijodi xazinasini bo'lgan doston, ertak, qo'shiq, lapar va boshqalarni xalq yaratadi, u og'izdan og'izga o'tib asrlar osha yashab keladi.

Muammoli vaziyat: fol'klor asarlari tarixiy manbalari haqida nimalar deya olasiz?

Milliy folklorshunosligimizning tarixiy manbalaridan shu narsa ma'lumki, Har bir xalqning baxshisi bo'lgani kabi bek baxshilari, ertakchi va qushikchilari doston, rivoyat, ertaklarni tinglovchilar davrasida ijro etganlar. Voqea – hodisalar, qahramon kechinmalarini ularning ovozi uchshatish, so'zini aytish, siymosini, harakat va xolatini uchshatish, bajarish va so'z orqali yetkazganlar.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishda folklor materiallarini urgatish muhimdir.

Ilk va kichik guruhlarda bolalar folklori materiallaridan ermak o'yin; «Barmokka barmok», «esonmisiz - omonmisiz», «Chapakka xo chapakka», «Oyi -

oyi», «goz - gozim» ertaklar- «To'liki bilan tovu», «Kizganchik it», «Ikki echki», «Fil va xuroz», «To'liki bilan Turna» kabilar urgatiladi.

Urta guruhda O'zbek xalq ertaklari: «Chivinboy», «Oltin tarvO'z», «Qo'yonjon va Laylakxon», «Xalollik» va xokazolar, sanama, erkalama, O'zbek xalq dostoni «Alpomish», «Gurugli» va «Choriy - chamber», «Chittigul»kabi harakatli o'yinlar urgatiladi.

Katta va tayyorlov guruhida folklor materiallaridan qushik, aytishuv, lapar, alla, chorlashma, cheklashmalar ham urgatiladi. Ushbu xalq ogzaki ijodi materiallarini urgatishda quyidagicha ish olib boriladi: ikki, turt bolalar O'zaro aytishuv aytadilar.

Masalan, aytishuv 2-4 qishi urtasida O'zaro aytiladi. Birining fikrini ikkinchisi davom ettiradi. Talabalar quyidagi aytishuvni aytadilar.

Biz bog'cha xovlida	Ona bola, ona boshi
Bo'lib tarafma – taraf	Yigitlarning kalam koshi
Navbat bilan aytishdik	Kimni olasan
Ok terakmi – kuk terak.	Tovuknimi, xurozni
Bizdan sizga kim kerak.	Keling juralar
Bizga kerak bog'chadan	Qushik aytaylik
Eng odobli kiz Durdona	Orzularimiz
Ok terakmi, kuk terak	Qushib aytaylik.
Bizga Durdona kerak	

Muammoli vaziyat;qushik,lapar nima? Ularning tarixi haqida so'zlang.

O'zbek xalq folklori materiallaridan qushik, laparni urgatish ham ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Ma'lumki, qushiklar tarixiy jihatdan insonlar hayoti, ularning vokelikka, tabiatga bo'lgan karashlari asosida vujudga kelgan san'atdir. Shu bois u marosim qushiklari, maishiy, oilaviy hayot mavzusiga doir qushiklar, lapar, yalla, terma, urf – odatlar, milliy kadriyatlarga doir qushiklarga bo'linadi. Marosim qushiklari xalqimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, mavsum bilan bog'liq, mehnat, xujalik yuritish tarzi bilan bog'liq janrlarga bo'linadi. Masalan,

xalq ogzaki ijodidagi «Sust xotin», «Choy momo», «Oblo baraka» kabi qushiklar mehnat mavsumi bilan bog'liq bo'lib, uni xalqimiz bugungi kunda ham ijro etadi.

Turkiy xalqlarning komusiy olimi M. Koshgariy XI asrda (1072 y) yaratgan «Devoni lugatit turk» asarida ko'plab qushiklarni keltiradi, unda qish va yoz tabiat hodisalari ifoda etiladi. Masalan,

Sovuk dunyoni surab olmokchi bo'ldi.

Kutlug yoyni tepdi

Dunyoni qor bilan yeymok istadi

Tanlar uvishib vijirladi.

Yashin yashnab otdi.

Tuman turib yana tushdi

Aygirlar, xachirlar qishnab

Suruvni boshlab kichkirdi.

Qushiklar har xil bo'ladi: 1. Oilaviy maishiy marosimlarga doir qushiklar turt turga: (so'zni sexrli kudratiga asoslanuvchi, olqish, afyun, bolalarning beshik davri marosimlari (chilla, beshik soldi) tuy marosimlari: yor – yor, lapar, kelin salom va motam marosimlari qushiklariga bo'linadi.

Qushik juda keng tarkalgan folklor janri bo'lib, barmok vaznidagi poetik matndan iborat bo'ladi, turt qator bir bandni kamrab oladi.

Lapar raksbob qo'yga ega bo'lgan qushik bo'lib, o'yin – raks harakati bilan ijro etiladi. Lapar matni ko'pincha lirik, didaktik, xazil she'rdan tashqil topadi.

Yalla – raks jurligida ijro etiladigan qushik bo'lib, uning har bir bandi naqorat bilan tugaydi.

Folklor materiallarini urgatishda tarbiyachi bolalarning qushik matni, uning ma'nosini tushunib olishi, matnni eslab qolishi va tez eslash, xotirlashga urgatishni asosiy maqsad qilib oladi. Chunki folklor materiallarining barcha janrlariga mos muhim xususiyat akliy teranlashgan – ijodiy, mantiqiy fikrlash asosida ma'naviy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Qushik urgatish maktabgacha ta'limda mashgulotdan tashkari paytda va musika mashgulotlarida olib boriladi. Ammo

qushik matnini tushunish, yod olish, uni qo'yga solib ijro etish boladan mas'uliyat talab etadi. Ularning eshitib eslab qolish kobiliyatini va xotirasini shakllantiradi.

Mustaqillik yillarida bolalar qushiklari ona – Vatan tuygusi, mustaqil yurtimiz madxi, onalar, bolalar odob – axloki kabi mavzular bilan boyidi. Masalan, M. Dadaboyevning «Eng ulug sana», «O'zbekiston», «Odob», «Vatan» kabi qushiklar matnini ko'rsatish mumkin (qushiklar matnini tarbiyachi yod oldiradi).

Muammoli vaziyat: tez aytish topishmok maqol matal haqida nimalar deya olasiz?

Darxaqikat, qushikka xos bo'lgan milliy ruh avloddan – avlodga utib saykal topgan milliy an'ana bo'lib, qushiklarda ezgulik, mehr - okibat, odob, Vatan, ona yurt madxi, tabiatni sevish va asrash kabi goyalar muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

2. Bolalar folklori janrlari orasida topishmoklar bolalar xotirasini rivojlantirish, eslash, xotirlash orqali nutqini o'stirish va ijodiy fikrlashga urtatadi. Bolalarda zexn va idroklilik, ko'zatuvchanlik va hozirjavoblikni o'stirish, mantiqiy fikrlashga urtatish bilan birga kasb – xunarga, mehnatga, tabiatni sevishga qiziqish uyg'otadi, O'zi ham topishmok tuqishni mashqqilish orqali ijodiy fikrlaydi. Buning uchun tarbiyachi nutq o'stirish badiiy adabiyot mashgulotlarida topishmok aytishga ahamiyat berishi lozim. Masalan, talabalar quyidagi topishmoklarni aytadilar.

Kukka chikib olov shar,

Bizga ziyo ulashar. (qo'yosh)

Tunda ko'rib chug deysan,

Tongda ko'rib yuk deysan. (yuldO'z)

Qush emas qanoti bor.

Chiroyli savlati bor.

Uchsa lochin yetolmas,

Tolmas zur qanoti bor. (samolyot)

Qanoti yuk uchadi,

Oyogi yuk kochadi. (shamol)

Yozda kiyinadi,

Qishda yechinadi. (daraxt)

Kat – kat kulok

Dum – dumalok. (karam)

3. Tez aytish bolalar ogzaki nutqini rivojlantirish bilan birga mantiqiy fikrlash kobiliyatini o'stiradi. Nutqda ortikcha so'zlarni kullashdan O'zoklashtiradi. Har bir so'z ma'nosini yaxshi tushunish, so'zni O'z urnida kullash, eng zarur so'zni topa bilishga urgatish orqali bolalar nutqini o'stiradi, ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Shuning uchun ham tarbiyachi eng qulay usullardan foydalangan holda tez aytishni urgatadi va u orqali bolalarni nutqiy ijodqorlikka, topkirlikka undaydi, ulardagi charchash va parishonlikning oldini oladi, so'z boyligini oshiradi, nutq madaniyatini tarbiyalaydi. Ayniqsa, ona tili va nutq madaniyati mashgulotlaridagi nutq tovushlari, so'z talaffuzidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etadi va bolalarni nutqni egallashga qiziqtiradi. Masalan, katta guruhda nonni nonvoy yopadi, nonni novvot deb sotadi. Ok ot ok ut yeydi, kuk ot kuk ut yeydi kabi tez aytishni urgatiladi. Masalan, tayerlov guruhida xalq ogzaki ijodini urgatish mashguloti quyidagicha tashqil etiladi.

Mashgulot uchun kerakli jixozlar mu'jizalar doirasi, ertak qahramonlari maketlari, geometrik shakllar, rasmlar.

Mashgulot musika xonasida tashqil etiladi, bolalar doira shaklida utiradilar.

Tarbiyachi mashgulot topshiriklari, borishi va bajariladigan ishlar mazmuni bilan bolalarni tanishtiradi, xonaga o'yinni boshlovchi kirib keladi.

Mashgulotning metodi: noan'anaviy metod va yangi pedagogik texnologiya asosida tashqil etish.

XULOSA

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi mustaqil ao'zbekistonimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu masala “ Ta’lim to’g’risida” gi Qonunda ham, “ Kadrlar tayyorlash milliy dastur”da ham, Prezidentimizning nutqlarida va oily majlis sessiyalarida qayta- qayta takidlanmoqda.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini ertak, qo'shiq, topishmoq maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi .

Sharq mutafakkirlaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Navoiy va boshqalarning asarlari bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rib o'tganimizdek, bolalar adabiyoti o'ziga xos xusu-siyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur anglash va sevisishga yordam beradi

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini ertak, qo'shiq, topishmoq maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Ammo shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.
“Ma`naviyat” nashriyoti . 2008-yil.
2. Karimov.I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston kelajagining poydevori.
Toshkent. “Ma`naviyat” nashriyoti . 1997-yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Davlat ta`lim standartlari. Toshkent.1997-yil.
4. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga
ishonaman. // “Fidoqor”gazetasi, 2002-yil 8-iyun.
5. Razzoqov.H va boshqalar . bek xalq og`zaki noetik ijodi.
Toshkent. “O`qituvchi” nashriyoti . 1980-yil. 124-167 -187- 209-
betlar.
6. Jumaboyev. M bek bolalar adabiyoti. Toshkent . “bekiston”
nashriyoti. 2002-yil. 29-42-betlar.